

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.T.15.06 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

INAMIDINOVA DILAROM KIRAMIDINOVNA

**TEXNIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BO'LAJAK
MUTAXASSISLARNING IJODKORLIK QOBILIYATLARINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASI**
(“Mashina detallari” fanini o‘qitish misolida)

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnika fanlari)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2026

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Inamidinova Dilarom Kiramidinovna

Texnika oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak mutaxassislarining ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi (“Mashina detallari” fanini o‘qitish misolida)..... 3

Инамидинова Диларом Кирамидиновна

Методика развития творческих способностей будущих специалистов технических вузов (на примере предмета «Детали машин»)..... 25

Inamidinova Dilarom Kiramidinovna

Methodology for developing the creative abilities of future specialists of technical universities (using the example of the subject “Machine parts”) 49

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 53

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.T.15.06 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

INAMIDINOVA DILAROM KIRAMIDINOVNA

**TEXNIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BO'LAJAK
MUTAXASSISLARNING IJODKORLIK QOBILIYATLARINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASI**
(*“Mashina detallari” fanini o‘qitish misolida*)

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnika fanlari)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

NAMANGAN – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PhD/Ped2248 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Namangan davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.namdtu.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Umurzaqov Akramjon Xakimovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Kenjaboyev Shukurjon Sharipovich
texnika fanlari doktori, professor

Boltayeva Muxayyo Lutfillayevna
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

**Andijon qishloq xo‘jaligi va
agrotexnologiyalar instituti**

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat texnika universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.T.15.06 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2026-yil “____” _____ soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 160103, Namangan shahar, Islom Karimov ko‘chasi, 12-uy. Tel.: (+99869) 234-15-23, faks: (+99869) 234-15-23, e-mail: namdtu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat texnika universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 160103, Namangan shahar, Islom Karimov ko‘chasi, 12-uy. Tel.: (+99869) 234-15-23.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 - yil “____” _____ kuni tarqatildi.
(2026 yil “____” _____ dagi № _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

N. G‘. Bayboboyev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
raisi, t.f.d., professor

A. A. Qahharov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, p.f.f.d., (PhD), dotsent

O. S. Abdullayeva

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, p.f.d., (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda davlat va jamiyat taraqqiyoti jarayonida yuzaga kelayotgan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik muammolarni hal etishda innovatsion bilimlar, kreativ yondashuv va yaratuvchanlikka, xususan, muhandislik ta'limini tashkil etish, uning sifati va samaradorligini oshirish, talabalarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-metodik yondashuvlarni takomillashtirishni taqozo etmoqda. Jahonning TOP-1000 reytingiga kiruvchi yetakchi universitetlarda muhandislik ta'limi jarayonida interfaol ta'lim platformalari, raqamli va multimediali metodik ta'minot, masofaviy va mustaqil ta'limni samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi 4K kompetensiyalar tizimi va sinergetik texnologiyalarni keng joriy etish ta'lim jarayonining individuallashtirishini ta'minlash, talabalarning kognitiv moslashuvchanligini va kreativ faolligini oshirish hamda ularning mustaqil ta'lim olish kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Dunyoning nufuzli ilmiy tadqiqot markazlarida muhandis-mexanik kadrlarning muhandislik kompetentligini rivojlantirish jarayonida talabalarning ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishga muhandislik bilimlari, texnik obyektlarning funksional va konstruktiv xususiyatlarini anglashga asoslangan kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish, 4K ta'lim texnologiyalari orqali erkin ijodiy muhitni shakllantirish, ijodiy fikrlashga to'sqinlik qiluvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan muhandislik-pedagogik tip topshiriqlar tizimini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. STEAM-ta'lim yondashuvi asosida talabalarning kreativ faolligini rivojlantirish, individuallashtirilgan o'qitish texnologiyalarini joriy etish hamda konstruktiv, texnologik va kommunikativ kompetensiyalarni ijodiy faoliyat bilan integratsiya qilishga qaratilgan ilmiy asoslangan pedagogik tizimni shakllantirish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim tizimining hozirgi bosqichida ta'lim mazmuni va metodikasiga, uning sifat va samaradorligini oshirish bo'yicha keng qamrovli ishlar olib borilib, ta'lim mazmunini loyihalash, muhandislik kompetensiyalarini tuzilmalarga ajratish, o'qitishning yangi metodik modellarini yaratish va ularni ta'lim amaliyotida qo'llashga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish" ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, "Mashina detallari" fanini o'qitish jarayonida talabalarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 - yil 30 - avgustdagi PQ - 4433 - son "Yoshlarni ilm - fan sohasiga jalb etish va ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori¹, 2019 - yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini

¹ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.08.2019 y., 06/21/6198/0269-son, 1-2-bandlari.

2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni², O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga murojaatnomasi³, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-aprelda PQ-222-son "Ilmiy va innovatsion faoliyat bilan shug'ullanib kelayotgan iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori⁴, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 18-yanvarda PQ-30-son "Iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash "Ulug'bek" jamg'armasi faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori⁵, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 16-yanvarda PQ-14-son "Oliy ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori⁶ hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining 1. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Talabalarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi respublikamiz olimlari tomonidan turli ilmiy yondashuvlar asosida o'rganilgan. Xususan, mazkur muammoning pedagogik va psixologik jihatlari Sh. Olimov, B. Ma'murov, U. Nishonaliyev, R. Mavlonova, N. Azizxo'jayeva, E. G'oziyev, B.R. Qodirov ishlarida, ijodkorlikning nazariy-metodologik asoslari, innovatsion texnologiyalar, interfaol ta'lim, to'garak faoliyati va texnik ijodkorlikka oid masalalar esa G.N. Ibragimova, N.M. Kadirova, Ye. G'oziyev, N.N. Karimova, I. Asqarov, A. Nazarov, Q. Qosimov, Sh.S. Sharipov, A.A. Abduqodirov, N.A. Bekmuratova, R.J. Ishmuxamedovlar tomonidan tadqiq etilgan. Biroq "Mashina detallari" fanini o'qitish jarayonida bo'lajak mutaxassislarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi alohida tadqiqot sifatida yetarlicha o'rganilmagan.

MDH olimlari L. Vigotskiy, A. Leontev, S. Rubinshteyn, M. Danilov, B. Yesipov, V. Bepalko, V. Slastenlar tomonidan texnik ta'limda ijodiy fikrlashni rivojlantirish, muammoli o'qitish va kasbiy faoliyatga tayyorlashning ilmiy asoslari ishlab chiqilgan. Umumkasbiy fanlarni o'qitish metodlari hamda texnologiyalar integratsiyasi masalalari N.I. Mokritskaya, O.G. Smolyaninova, D.B. Gorshkova, T.A. Barisheva, T.P. Petlina, V.A. Gerver, V.G. Razumovskiy tadqiqotlarida yoritilgan.

Xorijiy tadqiqotlarda esa ta'lim mazmunini yangilash, kasbiy kompetentlikni shakllantirish va uni ijtimoiy o'zgarishlarga moslashtirish masalalari, J. Gilford,

² Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.07.2023-y., 06/23/107/0441-son, 5-6-bandlari.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi.29.12.2020-y. <https://prezident.uz/uz/lists/view/4057>.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi №222-son Qarori.19.04.2021-y., <https://lex.uz/docs/5377538>

⁵ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 18.01.2022-y., 09/23/206/0287-son, 1-6 bandlari.

⁶ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2025-y., 09/25/14/0063-son, 1-2 bandlari.

T. Evers, N. Rankin, R.C. Scarcella, E.A. Schantz, E. Wenger, R. McDermott, W.M. Snyder, A. Gudelar tomonidan o'rganilgan.

Tadqiqot muammosiga oid yuqoridagi ilmiy izlanishlar hamda manbaalar tahlili shuni ko'rsatadiki, respublikamizda ta'lim jarayonida bo'lajak mutaxassislarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish va bunda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish yuzasidan muayyan ilmiy xulosalar shakllangan. Biroq mavjud adabiyotlar va ilmiy tadqiqot ishlari tahlili asosida aniqlanishicha, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalar bilan uyg'un mexanizmlari, ta'lim sifatini oshirish, texnika oliy ta'lim muassasalarida fanlararo integratsiyani yo'lga qo'yish, shuningdek, bo'lajak mutaxassislarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari yaxlit, tizimli darajada maxsus tadqiq etilmagan.

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy-amaliy faoliyatga tayyorlash jarayonida ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish, shuningdek, zamonaviy axborot jamiyatida umumkasbiy fanlarini rivojlantirish hamda integratsiyalashda raqamli texnologiyalarni qo'llash bugungi kunning innovatsion talablari darajasida yo'lga qo'yilmagan. Bo'lajak mutaxassislarning muhandislik kompetentligini raqamlashtirilgan texnologiyadan foydalanib o'qitish metodikasini takomillashtirish imkoniyatlari mavjud bo'lsada, ulardan psixologik va pedagogik jihatdan o'quv jarayonida foydalanish masalalari bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilmaganligi dissertatsiya ishi mavzusini dolzarb tadqiqot muammosi sifatida namoyon qiladi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Namangan davlat texnika universiteti ilmiy tadqiqot ishlarining 2025-2026-o'quv yili rejasiga muvofiq "Ta'lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish va uning samaradorligini oshirish" mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Texnika oliy ta'lim muassasalarida "Mashina detallari" fanini o'qitish orqali bo'lajak mutaxassislarning ijodiy fikrlash va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bo'lajak mutaxassislarning ijodkorlik faoliyati tashkiliy tuzilmasini sinergetik yondashuv va muhandislik kompetensiyalarining mazmuniy tarkibi asosida tahlil qilish, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish tavsifini ishlab chiqish hamda pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash;

bo'lajak mutaxassislarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan amaliy-kasbiy tip topshiriqlarni bajarishda kompetensiyalar tizimi va amalda joriy etishning metodik ta'minotini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish;

bo'lajak mutaxassislarning ijodkorlik qobiliyatlarining rivojlantirishga yo'naltirilgan muhandislik kompetensiyalarini malaka talablaridan nazariya va amaliyot birligi tamoyili hamda amaliy-kasbiy faoliyatning mazmuniy ko'rsatkichlarini sintezlash orqali o'quv didaktik ta'minoti hamda strukturaviy-funksional modelini takomillashtirish;

bo'lajak mutaxassislarning ijodkorlik qobiliyatlarining rivojlanganligini aniqlash ko'rsatkichlarini va mezonlarini tanlash, ta'lim jarayoniga moslashtirish, tajriba sinov ishlarini tashkil etish va olingan natijalarni matematik statistik qayta ishlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida texnika oliy ta'lim muassasalarida "Mashina detallari" fanini o'qitish orqali bo'lajak mutaxassislarning ijodiy fikrlash va texnik ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni belgilangan.

Tadqiqotning predmeti sifatida "Mashina detallari" fanini o'qitishda bo'lajak mutaxassislarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishning mazmuni, usullari, shakl va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusiga oid pedagogik-psixologik va ilmiy-metodik adabiyotlar tahlili, oliy ta'limning me'yoriy-huquqiy hujjatlari, talabalarni tayyorlash o'quv rejalari, dasturlari tahlili, muammo bo'yicha pedagogik tajribani umumlashtirish, o'qitish mazmuni va shakllarini pedagogik loyihalashtirish, empirik metodlar (pedagogik faoliyatni kuzatish, anketa, suhbat, test, ekspert baholash, so'rovnoma), pedagogik tajriba-sinov hamda matematik-statistik metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo'lajak mutaxassislarning ijodkorlik faoliyatining tashkiliy tuzilmasi yaratilgan (ijod mahsulining mazmuniy xususiyatlari, ijod tiplari, darajalari va shakllari) hamda muhandislik kompetensiyalari (motivatsion, kognitiv, faoliyatli-jarayonli va reflektiv) jarayonlarning sinergetik uyg'unligi asosida tizimlashtirilgan;

"Sanoatga bir qadam" metodi asosida bo'lajak mutaxassislarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan 4K, kreativlik kompetentligini bosqichma-bosqich (boshlang'ich g'oya tanlash, assortiment guruhlarini belgilash, konstruktiv variantni aniqlash hamda yakuniy artefakt-mahsulot yaratish) variativ amalga oshirish mexanizmini integratsiyalashtirilgan;

"Mashina detallari" fanini o'qitishda bo'lajak mutaxassislarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan funksional model pedagogik-didaktik yondashuvlar va amaliy-kasbiy faoliyat mazmuni asosida takomillashtirilgan.

bo'lajak mutaxassislarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalar, didaktik ta'minot hamda ularning samaradorligini aniqlashga yo'naltirilgan baholash mezonlari ishlab chiqilgan va ta'lim amaliyotidagi natijadorligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

bo'lajak mutaxassislarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi "Innovatsion texnologiyalar"(Mashina detallari) nomli o'quv qo'llanma yaratilgan va o'quv jarayoniga joriy qilingan;

bo'lajak mutaxassislarning ijodiy fikrlash va muhandislik kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan "Yosh mexaniklar" nomli elektron darslik yaratilgan (<https://suvoriy.com/mexanik/>), (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2024 yil 20-apreldagi №DGU 36620-sonli guvohnomasi) va o'quv jarayoniga joriy etilgan;

bo'lajak mutaxassislarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan o'quv didaktik ta'minot va "Yosh mexaniklar" to'garagi dasturi ishlab chiqilgan va amaliyotga tatbiq etilgan;

"Tarmoq – korxonalar – oliygoh" zanjirini o'quv jarayoniga moslashtirish asosida ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar AL-5121081266-sonli amaliy loyiha doirasida foydalanish uchun tatbiq etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining asoslanganligi xorijiy ilmiy jurnallarda, OAK ro'yxatiga kiritilgan jurnallarda, shuningdek, respublika va xalqaro ilmiy konferensiyalar materiallarida maqolalar chop etilgani bilan tasdiqlanadi. Dissertatsiyada foydalanilgan ma'lumotlarning ishonchliligi ularning rasmiy manbalardan olinganligi bilan ta'minlanadi, o'tkazilgan tahliliy va tajriba-sinov ishlarining samaradorligi esa matematik-statistik qayta ishlash natijalari bilan tasdiqlangan. Xulosa, taklif va tavsiyalar aprotatsiyadan o'tgan hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan ma'qullangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, texnika oliy ta'lim muassasalarida "Mashina detallari" fanini o'qitishda bo'lajak mutaxassislarning ijodiy fikrlashi va muhandislik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion yondashuv nazariy-metodik jihatdan asoslandi. CAD/CAE/CAM tizimlari va 3D printer texnologiyalariga tayangan o'qitish modeli, fan mazmuni bilan integratsiyalashgan innovatsion topshiriqlar tizimi hamda interfaol metodlarga asoslangan pedagogik model takomillashtirildi, shuningdek, "Sanoatga bir qadam" texnologiyasining moslashtirilgan varianti orqali texnik tafakkur va konstruktiv yechimlarni shakllantirishning ilmiy asoslari yoritildi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ishlab chiqilgan pedagogik model, interfaol metodlar va loyihaviy topshiriqlar majmuasining o'quv jarayoniga joriy etilganligi bilan belgilanadi. Ushbu yondashuv "Mashina detallari" fanini o'qitishda nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirish, raqamli loyihalash va prototiplash jarayonlarini tashkil etish imkonini berdi va talabalarning kreativ kompetensiyalari, mustaqil fikrlashi, konstruktiv yechim tanlashi va yakuniy mahsulot yaratish ko'nikmalarini rivojlantirdi hamda "Sanoatga bir qadam" texnologiyasi orqali oliy ta'lim bilan ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirishga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Texnika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga oid tadqiqot natijalari asosida:

bo'lajak mutaxassislarning ijodkorlik faoliyatining tashkiliy tuzilmasi yaratilgan (ijod mahsulining mazmuniy xususiyatlari, ijod tiplari, darajalari va shakllari) hamda muhandislik kompetensiyalari (motivatsion, kognitiv, faoliyatli-jarayonli va reflektiv) jarayonlarning sinergetik uyg'unligi asosida tizimlashtirishga doir taklif va tavsiyalari "Innovatsion texnologiyalar" (Mashina detallari) nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan. (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2026-yil, 31-martdagi 45-sonli buyrug'i o'quv adabiyotining nashr ruxsatnomasi ruxsatnomasi №45-018). Natijada innovatsion o'qitish samaradorligi bo'lajak mutaxassislarning ijodiy va mustaqil fikrlashini rivojlantirish, kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish hamda ta'lim

sifati va natijadorligini oshirish imkonini yaratdi;

“Sanoatga bir qadam” metodi asosida bo‘lajak mutaxassislarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan 4K, kreativlik kompetentligini bosqichma-bosqich (boshlang‘ich g‘oya tanlash, assortiment guruhlarini belgilash, konstruktiv variantni aniqlash hamda yakuniy artefakt-mahsulot yaratish) variativ amalga oshirish mexanizmiga integratsiyalashtirishga doir taklif va tavsiyalari “Yosh mexaniklar” nomli elektron darslik mazmuniga singdirildi. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 26-avgustdagi №4/17-4/4-14666-sonli ma‘lumotnomasi). Mustaqil ta‘lim, amaliy mashg‘ulotlar hamda ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan topshiriqlar jarayoniga tatbiq etildi;

bo‘lajak mutaxassislarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan funksional model pedagogik-didaktik yondashuvlar va amaliy-kasbiy faoliyat mazmuni asosida takomillashtirilgan o‘quv didaktik ta‘minot hamda “Yosh mexaniklar” to‘garagi dasturi oliy ta‘lim muassasalari o‘quv jarayoniga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 26-avgustdagi №4/17-4/4-14666-sonli ma‘lumotnomasi). Ishlab chiqilgan o‘quv-didaktik ta‘minot va to‘garak dasturi talabalarning darsdan tashqari faoliyatda ham ijodiy izlanishlarga yo‘naltirdi, amaliy va konstruktiv fikrlash ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qildi;

bo‘lajak mutaxassislarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalar, didaktik ta‘minot hamda ularning samaradorligini aniqlashga yo‘naltirilgan baholash mezonlari asosida ishlab chiqilgan va AL-5121081266-sonli amaliy loyiha amaliyotida foydalanilgan (Namangan viloyati hududiy innovatsiya faoliyati va texnologiyalar transferi markazi, 2024-yil, 15-iyulda №4/4-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada ta‘lim jarayonida detal qismlarini konstruksion yechimlarini loyihalash, tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va xulosa chiqarish orqali talabalarning konstruktorlik tafakkuri, muhandislik ko‘nikmalari, ijodkorlik qobiliyatlari hamda mustaqil qaror qabul qilish darajalari sezilarli darajada rivojlandi.

Tadqiqotimiz natijasida barcha pedagogik tajriba-sinov maydonchalari sifatida tanlab olingan OTMLlarda tajriba-sinov ishlari nihoyasida tajriba guruhidagi talabalarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichi nazorat guruhiga nisbatan 1,26 (15,6%) yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘ldi

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya bo‘yicha 14 ta ilmiy ish e‘lon qilingan bo‘lib, ular jumlasiga 1 ta o‘quv qo‘llanma, 1 ta elektron darslik, 1 ta o‘quv-uslubiy qo‘llanma, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi OAK tomonidan asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola kiradi, shundan 2 tasi xorijiy, 4 tasi esa respublika jurnallarida e‘lon qilingan. Bundan tashqari, “Yosh mexaniklar” to‘garagi dasturi ishlab chiqilgan va 1 ta EHM uchun yaratilgan dasturiy vositani qayd qilish guvohnomasi olingan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 129 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obykti va predmetlari aniqlangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalar ishonchliligi asoslangan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amalda joriy etilishi holati, ishning aprobatiya natijalari, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobida **“Mashina detallari” fanini o'qitishda bo'lajak mutaxassislarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishning nazariy-ilmiy asoslari** deb nomlangan bo'lib, texnika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarning “Mashina detallari” fanini o'qitishning zaruriyati, “Mashina detallari” fanini o'qitishda bo'lajak mutaxassislarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari, texnika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarning “Mashina detallari” fanini o'qitishning pedagogik-psixologik xususiyatlari bayon etilgan.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi hamda PF-5847 Farmonida oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish va talabalarning ijodkorlik salohiyatini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan ushbu vazifalardan kelib chiqib, texnika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarning ijodkorlik fikrlashini rivojlantirish, kasbiy-amaliy va innovatsion faoliyatga tayyorgarligini oshirish hamda kasbiy-amaliy muammoli vaziyatlarda noan'anaviy yechimlar qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirish muhimligini asoslab beradi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 9-avgustdagi 493-son “Yoshlarni xorijiy tillarga o'qitish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi Qarori asosida ta'lim mazmunini qayta ko'rib chiqish, innovatsion pedagogik texnologiyalar va interfaol o'qitish usullarini joriy etish orqali bo'lajak mutaxassislarning kreativ (ijodkorlik) kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu nuqtai nazardan bo'lajak mutaxassislarda kreativ fikrlash, muammolarni tahlil qilish, innovatsion g'oyalar generatsiyasi va jamoaviy ijodiy faoliyat kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan metodik yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy-metodik vazifa hisoblanib kelmoqda. Shunga asosan “Mashina detallari” fanini o'qitish jarayonida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Olib borgan izlanishlarimiz natijasida hamda pedagogik adabiyotlar va ilmiy manbalarni tahlil qilganimizda ijodkorlik shaxsning mustaqil fikrlash, muammolarni noan'anaviy talqin etish hamda mavjud bilim va amaliy tajribani yangi sharoitlarda transformatsiya qilish qobiliyati bilan xarakterlanadi.

“O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi”da ko'rsatilishicha, ijodkorlik termini fors-tojikcha so'zdan olingan bo'lib “ijod” (yaratish, vujudga keltirish), shaxsning yangi va noan'anaviy natijalar yaratishga qaratilgan faoliyatini anglatadi. O'zbek

tilining izohli lugʻatida “ijodkorlik” shaxsning yaratuvchanlik faoliyati va yangi natijalar yaratish qobiliyati sifatida talqin etadi.

Ijodkorlik (kreativlik, yaratuvchanlik) tushunchasi pedagogikani ilmiy muomalasiga XX-asrning oʻrtalarida Joy Paul Guilford tomonidan 1950-yilda asos solingan. Joy Paul Guilford ijodkorlikni intellektdan farqli ravishda mustaqil psixik “fenomen” sifatida asoslab, “divergent fikrlash” tushunchasini ilmiy muomalaga kiritgan.

Pedagogik lugʻatga muvofiq, “fikrlash” borliqdagi predmetlar va hodisalarni, ularning muhim xossalari, aloqalari va munosabatlarida umumlashgan va bilvosita aks ettirilishi bilan tavsiflanuvchi kognitiv jarayon sifatida taʼriflangan.

“Fenomen” soʻzi - tajriba va idrok jarayonida namoyon boʻladigan, hissiy yoki empirik tarzda kuzatilishi mumkin boʻlgan voqealik hodisasidir.

“Divergent fikrlash” - muammoni hal qilishda turli variantlar, gʻoyalar va yechimlarni generatsiya qilishga qaratilgan kreativ, kognitiv jarayon hisoblanadi.

S.L. Rubinshteyn nazariyasiga koʻra, “fikrlash” - tahlil va sintez jarayonlari asosida amalga oshadigan, ularning natijasi sifatida abstraksiya va umumlashtirishni taʼminlovchi kognitiv faoliyatdir, shu bilan birga, fikrlash turlari shaxs hal qiladigan masalalar xususiyati va uning faoliyat sohasiga bogʻliq holda shakllanadi.

Amerikalik olim Ellis Paul Torrance tomonidan ijodkorlikni baholash mezonlari ishlab chiqilgan boʻlib u “kreativlikni”, “fikrlarning noʻananaviyligi” kabi koʻrsatkich orqali tavsiflagan.

Tadqiqotni olib borish jarayonida ilmiy izlanish obyekti sifatida tanlangan “Qishloq xoʻjaligini mexanizatsiyalashtirish” va “Texnologik mashina va jihozlar” taʼlim yoʻnalishlari boʻlajak mutaxassislarining “Mashina detallari” fanini oʻqitishda taʼlim jarayoniga kreativ yondashuvlarni integratsiya qilish ularning kognitiv faolligini, moslashuvchanligini (kognitivnaya gibkost) faollashtirish, tahliliy va tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish hamda kasbiy-amaliy kompetentligini shakllantirishning muhim omili ekanligini koʻrsatdi.

Ijodkorlik qobiliyati iboralarining yuqorida keltirilgan yurtimiz va xorijiy olimlarning tadqiqotlari hamda 60010100 – “Qishloq xoʻjaligini mexanizatsiyalashtirish” va 60720700 – “Texnologik mashina va jihozlar” taʼlim yoʻnalishlarining malaka talablari asosida “Ijodkorlik qobiliyati”ga tadqiqotimiz uchun ishchi taʼrif ishlab chiqdik (1-rasmga qarang).

**Ijodkorlik
qobiliyati**

Ijodkorlik – bu insondagi mavjud bilim va tajribani qayta ishlash orqali yangicha gʻoya, noodatiy yechim yoki innovatsion mahsulot yaratish imkonini beruvchi psixologik-intellektual salohiyatdir.

1-rasm. “Ijodkorlik qobiliyati” uchun ishchi taʼrifi

Bildirilgan ilmiy-nazariy xulosalarga tayangan holda boʻlajak mutaxassislarining ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishning mantiqiy-tuzilmasi ishlab chiqildi (2-rasmga qarang).

Ijodiy faoliyat mahsuli yangilik darajasi va murakkablik mezoniga ko'ra turlicha namoyon bo'lishi, ratsionalizatorlik taklifi mavjud yechimni takomillashtirishga qaratilgan amaliy yangilikni, ixtiro, yangi texnik yechimni ilmiy asosda aniqlanishini ifodalaydi.

Ijodiy faoliyat mahsullari umumiy jihatlariga ko'ra yangi g'oyalarni amaliyotga tatbiq etish, prinsipial yangi yechimlarni ilgari surish va yangilikni real faoliyatda qo'llash bilan tavsiflanadi.

Ijod shakllari innovatsion, ilmiy tadqiqotchilik, ta'limiy, investitsion va aralash ko'rinishlarda namoyon bo'libgina qolmay, ular yangilik yaratish, ilmiy natijaga erishish, ta'lim jarayonini takomillashtirish, iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash hamda kompleks yondashuvni amalga oshirish bilan tavsiflanadi.



2-rasm. Bo'lajak mutaxassislarning ijodkorlik faoliyatining tashkiliy tuzilmasi

Ijod davomiyligiga ko'ra qisqa muddatli, o'rta muddatli va uzoq muddatli turlarga ajratiladi. Ular mos ravishda tezkor yechim yaratish, izchil takomillashuvga erishish va uzoq davom etuvchi ijodiy faoliyat asosida yirik natijani yuzaga keltirish bilan tavsiflanadi.

Ijod darajasi subektiv ishtirok va hamkorlik miqyosiga ko'ra farqlanadi: mono ijod - individual yaratuvchanlikni, multiijod - kooperativ ijodiy faoliyatni, mega ijod esa ko'p subyektki, kompleks va strategik ahamiyatga ega integrallashgan ijodiy jarayonni anglatadi.

Ijod turi uning mazmuni va qo'llanish sohasiga ko'ra texnik, texnologik, tashkilotchilik, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy, pedagogik, didaktik, kasbiy va aralash shakllarda namoyon bo'lib, ular yangilik yaratish, faoliyatni takomillashtirish va samarali natijaga erishishga xizmat qiladi.

Bo'lajak mutaxassislarning ijodkorlik qobiliyatlarini samarali rivojlantirish muayyan pedagogik shart-sharoitlarda amalga oshirishni taqozo etdi. Fanga doir manbalarni o'rganish va "Mashina detallari" fanini o'qitishni tashkil etish, jarayonini kuzatish natijasida quyidagi pedagogik shart-sharoitlarning mavjudligi bo'lajak mutaxassislarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega, degan xulosaga kelindi. Bo'lajak mutaxassislarning ijodkorlik

qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari didaktik, tashkiliy hamda psixologik-pedagogik bloklar asosida tizimlashtirildi:

didaktik blok – ta’lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, muammoli, ijodiy va loyihaviy topshiriqlar tizimidan foydalanish, nazariya va amaliyot uyg’unligini ta’minlash hamda fanlararo yondashuv asosida o’quv mazmunini boyitish;

tashkiliy blok – amaliy mashg’ulotlar va loyihaviy faoliyatni samarali tashkil etish, zamonaviy moddiy-texnik hamda metodik ta’minotni shakllantirish, shuningdek, maxsus ta’lim muhitini yaratish;


psixologik-pedagogik blok – mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish faoliyatini rag’batlantirish, ijodiy-erkin ta’lim muhitini qaror toptirish hamda o’qituvchi va talaba o’rtasida hamkorlikka asoslangan munosabatlarni rivojlantirish ustuvor yo’nalish sifatida belgilandi.

Dissertatsiyaning **“Texnika oliy ta’lim muassasalarida bo’lajak mutaxassislarining ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida bo’lajak mutaxassislarining “Mashina detallari” fanini o’qitishda ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish modeli, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishning metodik ta’minoti hamda bo’lajak mutaxassislarining “Mashina detallari” fanini o’qitishda ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalari to’g’risida bayon etilgan.

Texnika oliy ta’lim muassasalarida “muhandis-mexanik” kasbi bo’yicha joriy etilgan 4K kompetensiyalar tizimni tahlil qilish bizga o’quv faoliyati subyektini rivojlantirish muammolarini aniqlash imkonini berdi. Ta’limning yangi paradigmasi talablaridan kelib chiqqan holda, ta’lim sifatini yangicha nuqtayi nazardan tushunish, talqin qilish bo’lajak mutaxassislarining muhandislik, amaliy-kasbiy va ijodkorlik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini tizimli, kibernetik, modellashtirish, faollashtirish asosida takomillashtirish zarurligini ko’rsatdi.

Tadqiqot jarayonida “Sanoatga bir qadam” metodi asosida 4K kompetensiyalar tizimi (***Creativity, Critical thinking, Communication, Collaboration***) mazmunini ifodalovchi abreviaturaga tayangan holda qo’shimcha “Yosh mexaniklar” to’garagi ta’lim dasturi, metodik qo’llanma va elektron darsligi ishlab chiqildi ta’lim jarayoniga kiritildi va o’quv rejalari mazmuni takomillashtirildi (3-rasmga karang).

Ishlab chiqilgan metodik ta’minot va pedagogik yondashuvlar o’quv jarayoniga bosqichma-bosqich joriy etildi. “Sanoatga bir qadam” metodi 4K kompetensiyalar tizimini integratsiyalash orqali o’quv faoliyati tashkil etildi va pedagogik yondashuvlar bo’lajak mutaxassislarining kognitiv moslashuvchanligini ularning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qildi. Joriy etilgan metodika asosida tashkil etilgan o’quv jarayoni natijasida bo’lajak mutaxassislarining kognitiv moslashuvchanligi kreativ fikrlash qobiliyati hamda jamoaviy hamkorlik kompetensiyalari sezilarli darajada rivojlantirildi, ta’lim jarayonini real ishlab chiqarish muhiti orqali uygunlashtirildi va bo’lajak mutaxassislarining texnik muammolarni mustaqil hal etishga tayyorligini oshirdi.



3-rasm. “ Mashina detallari” fanining 4K kompetensiyalar tizimi asosida tashkil etish

“Sanoatga bir qadam” metodi bo‘lajak mutaxassislarning tizimli, kibernetik, modellashtirish yondashuvlari orqali mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish hamda kasbiy-amaliy kompetentligini oshirishning samarali didaktik vositasi sifatida namoyon bo‘ldi.

Oliy ta‘lim muassasalarida bo‘lajak mutaxassislarning ijodkorlik qobiliyatlarini samarali rivojlantirish uchun mustahkam ilmiy-nazariy asosga tayanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy asoslangan modelni ishlab chiqish mazkur jarayonning tuzilishi, mazmuni va funksional xususiyatlarini tizimli ravishda ifodalash, shuningdek, uning yahlitligini ta‘minlash imkonini beradi. Ta‘lim jarayonining mazmun-strukturasini aks ettiruvchi modelning mavjudligi ijodiy faoliyatni rivojlantirishni maqsadli ravishda loyihalash, tashkil etish va boshqarishga xizmat qiladi.


Zamonaviy ta‘lim taraqqiyoti sharoitida modellashtirish ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishning muhim pedagogik vositasi sifatida namoyon bo‘lib, ta‘lim paradigmalardagi o‘zgarishlar innovatsion didaktik tizimlarni ishlab chiqish va ularni ilmiy asosda modellashtirishga nisbatan yangi talablarni yuzaga keltirmoqda.

Tadqiqotda modellashtirish orqali “Sanoatga bir qadam” metodini qo‘llash va 4K kompetensiyalar tizimi pedagogik jarayonning ko‘p qirrali va noyob xususiyatlarini ilmiy asosda tizimli ifodalash imkonini beradi.

Modellashtirish orqali “Sanoatga bir qadam” metodini qo‘llash 4K kompetensiyalar tizimi jarayoni izchil bosqichlarda amalga oshirilib, avvalo, tadqiqot obyektiga oid mavjud bilimlarni tahlil qilish va tizimlashtirish, keyin esa mavjud modellar orasidan o‘rganilayotgan jarayonning mazmun-mohiyatini eng maqbul aks ettiruvchi variantlarni tanlashni nazarda tutadi va shunga muvofiq, modelni ishlab chiqish jarayonida bo‘lajak mutaxassislarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlarni aniqlash muhim hisoblanadi.

Xususan, “Sanoatga bir qadam” metodi asosida talabalarning mustaqil fikrlashi, kreativ yondashuvi va innovatsion yechimlar ishlab chiqish qobiliyatlarini shakllantirish ustuvor vazifa sifatida belgilanadi. Natijada ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonida bo‘lajak mutaxassislarning ijodiy faoliyatini samarali tashkil etish uchun ta‘lim usullarini takomillashtirish, mustaqil ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish hamda ijodiy fikrlashni rag‘batlantiruvchi ta‘lim muhitini shakllantirish zarurligi asoslanadi. Bu esa bo‘lajak mutaxassislarda ijodkorlik qobiliyatlarini tizimli ravishda rivojlantirishning muhim pedagogik sharti sifatida namoyon bo‘ladi.


“Sanoatga bir qadam” ta‘lim metodi 4K kompetensiyalar tizimini singdirish orqali bo‘lajak mutaxassislarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish modeli tizimli yondashuv nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqildi. Unga ko‘ra, o‘zaro bog‘liq elementlar muayyan yaxlit pedagogik tizimni tashkil etadi. Tizimni tahlil qilish uning tuzilmasini aniqlash va funksional xususiyatlarini ochib berish imkonini berdi hamda modelni quyidagi o‘zaro bog‘liq bloklar asosida ifodalashga xizmat qildi: maqsadli, mazmunli, jarayonli, metodik va natijaviy (4-rasmga qarang). Bo‘lajak



4-rasm. Bo‘lajak mutaxassislarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonini funksional modeli

mutaxassislarni ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish modeli maqsad, mazmun, jarayon, natijaviy-baholash komponentlaridan tashkil topgan.

Maqsadli blok komponentida bo‘lajak mutaxassislarning malaka talabida belgilangan ta‘lim mazmunining zarur va yetarli hajmini egallagan, o‘quv ta‘lim dasturlarini muvaffaqiyatli o‘zlashtirgan, to‘garaklarda o‘z bilimini chuqurlashtirib, amaliy kasbiy kompetensiyalarni puxta egallagan mutaxassisni tayyorlash vazifasi qo‘yilgan.



5-rasm. “Mashina detallari” fanini “Sanoatga bir qadam” metodi asosida o‘qitish mexanizmi

Mazmuniy blok komponentida bo‘lajak mutaxassislarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishning o‘quv-me‘yoriy asoslari sifatida ta‘limiy talablar integratsiyalash asosida DTSlarini tizimli, modellashtirish yondashuvlar asosida takomillashtirish, amaliy-kasbiy kompetensiyalarini “Sanoatga bir qadam” metodi asosida rivojlantirish bosqichlari, o‘quv reja va dasturlarini takomillashtirish ko‘zda tutiladi (5-rasmga qarang).

Jarayonli blok komponentning tashkil etuvchilari sifatida quyidagilar belgilandi: amaliy tayyorgarlik subyektlari, ijodkorlik qobiliyatlarining rivojlantirishga qaratilgan to‘garak ta‘lim muhiti (maqsadli loyihalash, metodik ta‘minot, amaliy faoliyat, tahliliy reflektiv), “Sanoatga bir qadam” metodini integrativ qo‘llash, ta‘lim metodlari, ta‘lim shakllari (jamoaviy, guruhli va individual ishlar qo‘llanilib, amaliy, ko‘rgazmali, visual, T-sxema metodlar hamda interfaol metodlar, jumladan, Dekompozitsiya-klaster, Triz texnologiyasi, Keys-stadi), ta‘lim vositalari (zamonaviy kompyuter texnologiyalari, CAD/CAM/CAE tizimlari, multimedia vositalari va zamonaviy laboratoriya jihozlari asosiy didaktik vositalar).

Natijaviy-baholash blokli komponentida bo‘lajak mutaxassislarda ijodkorlik qobiliyatlarining rivojlantirish mezonlari (motivatsion, kognitiv, faoliyatli-jarayonli,

refleksif) va baholash darajasi yuqori (ijodiy), o‘rta (mahsuldor) va past (faoliyatli) tanlandi.

Taklif etilgan funksional modelni amaliyotga joriy etishda bo‘lajak mutaxassislarning kreativ, fikrlash kompetensiyasini, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini hamda muhandis-mexanik faoliyatiga kasbiy tayyorgarlik darajasining sezilarli oshishini empirik jihatdan asoslandi, natijalari esa, bo‘lajak mutaxassislarning kognitiv faolligini, tizimli, modellashtirish, innovatsion yondashuvi va amaliy muammoli vaziyatlarda samarali yechimlar ishlab chiqish, ijodkor, innovatsion fikrlovchi va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiluvchi ilmiy asoslangan va samarali pedagogik mexanizm shakllantirildi.

Dissertatsiyaning **“Texnika oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak mutaxassislarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish bo‘yicha tajriba-sinov natijalari”** deb nomlangan uchinchi bobida texnika oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak mutaxassislarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlanganligini aniqlash mezon va ko‘rsatkichlari hamda tajriba-sinov ishlari natijalari tahlili keltirilgan.

Bo‘lajak mutaxassislarda ijodkorlik qobiliyatlarini oshirishga erishish va tashkil etishda quyidagi bosqichlar ahamiyatli sanaladi.

